

**TIL VA JAMIYAT O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK:
SOTSIOLINGVISTIKANING DOLZARB MASALALARI
(O'ZBEKISTON MISOLIDA)**

Saloxiddinova Sayyora Aliqulovna,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston
Mail: sayyorasaloxiddinova0109@gmail.com

Annotatsiya. Til insoniyatning madaniy merosi bo'lib, milliy identitet (o'ziga xoslikni, shaxsiyatni, kimligini ifodalovchi tushuncha) va ijtimoiy munosabatlarning asosiy vositasi hisoblanadi. Tilshunoslik bo'limlaridan biri sanaluvchi sotsiolingvistika tilning jamiyat orasidagi rolini hamda uning ijtimoiy, siyosiy va madaniy dinamikasiga ta'sirini o'rganadi. O'zbekiston kabi ko'p millatga, shu boisdan ham ko'p tilga ega mamlakat misolida bu bog'liqlikni tahlil etmoq ayniqsa dolzarbdir. Quyidagi keltirib o'tiladigan maqolaning maqsadi – til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini sotsiolingvistika nuqtai nazaridan O'zbekiston misolida namoyish etishdir.

Kalit so'zlar: Til va jamiyat, sotsiolingvistika, til siyosati, ko'p tillilik, ijtimoiy identifikatsiya, O'zbekiston, lingvistik markazlashuv, madaniyat, tildagi o'zgarishlar, jamiyatdagi tilga munosabat.

Sotsiolingvistika – bu tilning jamiyatdagi o'rnini va ijtimoiy omillar bilan o'zaro aloqasini o'rganadigan soha. Bu fan til va jamiyatni bir butun tizim sifatida tahlil qiladi. Ya'ni "til" va "jamiyat" o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadi. Sotsiolingvistikaning asosiy tamoyillaridan biri – tilning ijtimoiy identitetni shakllantirishidir, ya'ni til orqali milliy, mintaqaviy yoki yoshlar identitetlari quriladi. Shuningdek, til o'zgarishlarning, masalan, globalizatsiya va texnologik yangilanishlarning indikatori ham hisoblanadi. Till insoning ijtimoiy guruhga (millat, mintaq, sinf, yosh, jins) mansubligini ko'rsatadi. Quyida sotsiolingvistikaning asosiy tushunchalariga to'xtalib o'taman.

1. Tiliy o'zgaruvchanlik (Language Variation):

Til bir jamiyat ichida turli shakllarda (dialekt, registr, stil) namoyon bo'lishi.

- Diyatopik o'zgaruvchanlik: Geografik joylashuvga bog'liq farqlar (masalan, Buxoro va Samarqand shevalari).

- Diastratik o'zgaruvchanlik: Ijtimoiy tabaqa (ta'lim, kasb) bilan bog'liq farqlar.

2. Tiliy hamjamiyat (Speech Community):

Bir xil til qoidalariga amal qiluvchi va o'zaro muloqot qiluvchi insonlar guruhi (masalan, o'zbek tilida so'zlashuvchi jamiyat).

3. Kod almashinuvi (Code-Switching):

Bir muloqot jarayonida ikki yoki undan ortiq til (yoki sheva) o'rtasida almashinish. Masalan, o'zbek va rus tillarini aralash ishlatish ("Salom, как дела?").

4. Til repertuari (Language Repertoire):

Bir shaxsning turli ijtimoiy vaziyatlarda qo'llay oladigan tillar yoki shevalar majmui.

Jamiyat tilni qanday shakllantirishiga e'tibor qaratamiz. Misol tariqasida, O'zbekistonning sovet davridagi rus tilining hukmronligi va mustaqillikdan keyin o'zbek tilining mavqeyining oshishini keltirish mumkin. Rus tilining o'rni faqat til sifatida emas, balki jamiyatda iqtisodiy va siyosiy qarorlar qabul qilishda ham ko'rinar edi. Mustaqillikdan keyin o'zbek tiliga o'zgarishlar kiritilgan, jumladan, lotin alifbosiga o'tilgan. Asta sekin barcha hujjat qog'oz so'z o'zbek tilida yuritilishni boshlagan. Demakki til ijtimoiy o'zgarishlarning ko'zgusidir. Jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy o'zgarishlar tilga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Misollar:

- Texnologiya ta'siri: *"Blog", "trend", "onlayn"* kabi so'zlar kundalik tilga kirgan.

- Madaniyatlararo almashinuv: Ruscha, inglizcha so'zlar o'zbek tilida qo'llanilishi ("kompyuter", "shou").

O'zbekistonda ko'p tillilik ahamiyatli o'rin tutadi. Rus, tojik, qoraqalpoq tillari birgalikda qo'llaniladi. Davlat tili sifatida o'zbek tili belgilangan bo'lsa-da, rus tili amalda biznes va ta'lim sohalarida katta ta'sirga ega. Shu bilan birga, ingliz tilining kuchayishi ham sezilmoqda, ayniqsa IT sohalarida. Internetda yangi so'zlar va iboralar – "чирилляма", "бунёдкори" kabi – yoshlar orasida keng tarqalgan. Bular esa turli sotsiolingvistik muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekistonda til xavfsizligi, xususan kichik tillar (tojik, qoraqalpoq)ning yo'qolishi, katta muammolardan biridir. Bundan tashqari, til va tengsizlik masalasi ham dolzarbdir, masalan, rus tilinibilganlar uchun imtiyozlar mavjudligi, bu esa til bilishiga qarab jamiyatdagi mavqega ta'sir qiladi. Shuningdek, global tillar va mahalliy tillar o'rtasidagi madaniy kurash ham til siyosatining murakkabligi va o'zgarishlarni talab qiladi.

Xulosa sifatida ushbu masalalarga yechim takliflarini sanab o'tmoqchiman. Til va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish, ayniqsa, O'zbekistonning ko'p tilli va ko'p millatli tuzilishida ahamiyatlidir. Jamiyatni tahlil qilishda tilning roli, ularning ijtimoiy va siyosiy aspektlaridan kelib chiqadigan muammolarni hal qilish uchun bir nechta takliflar mavjud:

1. Til siyosatini muvofiqlashtirish: Ko'p tillilikni qo'llab-quvvatlash va mahalliy tillarni rivojlantirish, masalan, qoraqalpoq tilini qo'llab-quvvatlash.

2. Ta'lim tizimida o'zgarishlar: Mahalliy tillar, xususan, tojik, qoraqalpoq tillarini rivojlantirish va ta'limda teng imkoniyatlarni yaratish.

3. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash: O'zbek tilining raqamli muhitda qo'llanilishini kuchaytirish, masalan, AI tarjimonlar, onlayn lug'atlar va madaniy loyihalarni yaratish orqali.

Til jamiyatni aks ettirish va shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda bu bog'liqlikning yanada rivojlanishi, til siyosatining to'g'ri yo'naltirilishi va jamiyatning tilga bo'lgan munosabatini o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wardhaugh, R., & Fuller, J. M. An Introduction to Sociolinguistics. Wiley-Blackwell. – 2014.
2. Coulmas, F. The Handbook of Sociolinguistics. Blackwell Publishers. – 1997.
3. Trudgill, P. Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. Penguin Books. – 2000.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Davlat tili to‘g‘risidagi qonun. – 1992.
5. O‘zbek tilining rivojlanishi va davlat tili sifatidagi maqomi haqidagi rasmiy hujjatlar va ilmiy maqolalar.